

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK 338.24:339.13.024

Nig‘monov Zoirjon Zokirjon o‘g‘li

**Mavzu: Sifat menejmenti asosida davlat boshqaruvi usullarini
takomillashtirish**

70411201 - “Menejment” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. J.X.Rashidov

Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

15-sonli bayonnoma "22" mai 2023 y.

Kafedra mudiri: Yo'ldoshev N.Q.


imzo


22.05.2023
sana

Ilmiy rahbar: Rashidov J.X.


imzo

22.05.2023
sana

Talaba: Nig'monov Z. Z.


imzo

22.05.2023
sana

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda davlat boshqaruvi idoralari faoliyatini tubdan takomillashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, umuman, demokratiyani yangi bosqichga olib chiqish borasida keng qamrovli islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Davlat boshqaruv idoralarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyat va javobgarligini kuchaytirish, mahalliy ijro organlari, vakillik idoralari hamda mahallaning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek bugungi kunda respublikamida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish sharoitida zamonaviy sifat menejmenti tizimini hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoq va sohalarida xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan ushbu magistrlik dissertatsiyasida sifat menejmenti va uni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslari, sifat tushunchasi, uning mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, sifat menejmenti tizimida ISO 9000 seriyali xalqaro standartlarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Shuningdek, ushbu tadqiqotda "BEST COLOR TEXTILE" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-iqtisodiy tavsifnomasi yoritilgan, "BEST COLOR TEXTILE" mas'uliyati cheklangan jamiyatida sifat menejmentini joriy qilishning hozirgi holati tahlil qilingan, xorijiy mamlakatlarning sifat menejmentiga yondashuvlari o'rganilgan.

Tadqiqotda, shuningdek, davlat boshqaruvining samaradorligi va sifatini baholash usullari baholangan, sifat menejmenti asosida davlat boshqaruvi usullarini takomillashtirish va davlat boshqaruvi usullari samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha takliflar berilgan.

Tayanch iboralar: sifat menejmenti, ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar, sifatni baholash, yondashuvlar, davlat boshqaruvi usullari, samaradorligi, istiqbolli yo'nalishlari.

ANNOTATION

In our country, comprehensive reforms on the radical improvement of the activities of Public Administration agencies, ensuring the rights and freedoms of citizens, as a whole, bringing democracy to a new level are continued with consistency. Priorities are set in strengthening the responsibility and responsibility of state management agencies in solving territorial issues, further improving the local executive bodies, representative offices and the institutional framework of the neighborhood. Also today, in the conditions of the formation and development of the digital economy in the Republic, comprehensive work is carried out to introduce the modern quality management system and international standards in the priority sectors and sectors of the economy.

In this regard, this master's thesis studied the scientific and theoretical foundations of quality management and its implementation, the concept of quality, its content and socio-economic significance of improvement, the peculiarities of the introduction of ISO 9000 series of international standards in the quality management system.

Also, this study covered the organizational and economic description of the limited liability company "BEST COLOR TEXTILE", analyzed the current state of the introduction of Quality Management in the limited liability company "BEST COLOR TEXTILE", studied the approaches of foreign countries to Quality Management.

The study also evaluated methods for assessing the effectiveness and quality of Public Administration, made suggestions on promising areas for improving methods of Public Administration on the basis of quality management and improving the effectiveness of methods of Public Administration.

Base phrases: quality management, ISO 9000 series international standards, quality assessment, approaches, methods of Public Administration, efficiency, promising areas.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
1.4. Tadqiqotning ob’ekti va predmeti.....	10
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	12
2.1. “Sifat menejmenti asosida davlat boshqaruvi usullarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-nazariy qarashlarga sharh.....	12
2.2. Tadqiqot bilan bog‘liq mahalliy normativ qonun - qoidalar sharhi.....	22
III BOB. METODOLOGIYA.....	27
3.1. Tadqiqot dizayni.....	27
3.2. Ma’lumot yig‘ish jarayoni.....	27
3.3. Qo‘llaniladigan tahlil usullari.....	28
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	35
4.1. “BEST COLOR TEXTILE” mas’uliyati cheklangan jamiyatiining faoliyati tavsifi.....	35
4.2. “BEST COLOR TEXTILE” mas’uliyati cheklangan jamiyati moliyaviy-iqtisodiy faoliyati va sifat menejmenti tizimini joriy etish holatining tahlili.....	41
4.3. Xorijiy mamlakatlarning sifat menejmentiga yondashuvlari.....	52
V BOB. XULOSA.....	57
5.1. Tadqiqotdan olingan xulosalar.....	57
5.2. Tadqiqotning asosiy takliflari va tavsiyalari.....	67
5.3. Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar.....	69
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	72

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Mamlakatimizdagi ishlab chiqariladigan mahsulotlarning xalqaro sifat talablari va xalqaro standartlarga javob berishi korxonalarining jahon bozorida munosib o'rinni egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Sifat menejmenti tizimini joriy etish ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatning sifati uchun kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizning strategik maqsadlarga erishishi uchun sifat menejmenti tizimini xalqaro standartlar talablariga mos ravishda ishlab chiqish, mahsulot va xizmatlarning iste'mol xususiyatlarini va sifatini yaxshilashga qaratilgan sifat menejmenti tizimini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamiz va jahon mamlakatlarining ilg'or tajribalari ko'rsatadiki, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining samarali faoliyati, ularning boshqaruv usullariga, rahbarlarining o'z vazifasini qay darajada uddalay olishiga, ularning professional va tadbirkorlik qobiliyatiga bog'liqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev shunday deygan: **“Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o'zimiz mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat. Shunday davr keldi¹.**

Sifat menejmenti tizimi asosidagi xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirishni rivojlanishi, tarmoq mahsulotlarining iste'mol uchun xavfsizlik darajasi va sifati oshishi, shuningdek, ularning milliy va jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sifat menejmenti asosida davlat boshqaruvi usullarini takomillashtirishni amaliy jihatdan o'rganish zarurati ushbu

¹Sh.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. Toshkent. “O'zbekiston”, 2017 yil.